№6/2026



ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ISSN 2181-4309

INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Q.Q. Toshtemirov
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.
Ushbu maqolada inklyuziv ta'limda nutqida nuqsoni bor bolalarni musiqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda logoritmika, vokaloterapiya (jamoa bo'lib qo'shiq kuylash) va Karl Orff metodikasiga asoslangan majmuaviy korreksion yondashuv tatbiq etildi. Pedagogik eksperiment natijalari musiqa ritmi va elementar cholg'u ijrochiligi bolalarda mayda motorikani faollashtirib, bosh miya nutq markazlariga refleksiv ta'sir ko'rsatishini, nutqiy nafasni tiklashini hamda logofobiyani bartaraf etishini isbotladi. Qiyosiy diagnostika ko'rsatkichlari taklif etilgan tizimning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.
Kalit so'zlar:
inklyuziv ta'lim, musiqiy tarbiya, logoritmika, Karl Orff metodikasi, mayda motorika, dizartriya, logofobiya.

Аннотация.
В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы музыкального воспитания детей с нарушениями речи в условиях инклюзивного образования. В исследовании внедрен комплексный коррекционный подход, основанный на логоритмике, вокалотерапии (коллективном пении) и методике Карла Орфа. Результаты педагогического эксперимента доказали, что музыкальный ритм и исполнительство на элементарных инструментах активизируют мелкую моторику у детей, оказывая рефлекторное воздействие на речевые центры головного мозга, восстанавливают речевое дыхание и устраняют логофобию. Показатели сравнительной диагностики подтверждают высокую эффективность предложенной системы.
Ключевые слова:
инклюзивное образование, музыкальное воспитание, логоритмика, методика Карла Орфа, мелкая моторика, дизартрия, логофобия.

Abstract.
This article addresses the issues of improving the music education system for children with speech disorders in inclusive education. A comprehensive correctional approach based on logorhythmics, vocal therapy (collective singing), and the Karl Orff method was implemented in the research. The results of the pedagogical experiment proved that musical rhythm and elementary instrument playing activate fine motor skills in children, exerting a reflexive effect on the speech centers of the brain, restoring speech breathing, and eliminating logophobia. Comparative diagnostic data confirm the high efficiency of the proposed system.
Keywords:
inclusive education, music education, logorhythmics, Karl Orff method, fine motor skills, dysarthria, logophobia.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy pedagogika va psixologiyaning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri – har bir bolaning, uning jismoniy va psixologik rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar, sifatli ta'lim va tarbiya olish huquqini ta'minlash hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish va rivojlantirish alohida ehtiyojli bolalarni (shaxslarni) jamiyatga bog'lashning eng samarali mexanizmi sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq, inklyuziv muhitda faqatgina bilimlarni o'zlashtirish emas, balki bolaning emotsional – sezgi sohasini rivojlantirish, undagi psixologik to'siqlarni bartaraf etish hamda ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish ham muhim vazifalardan sanaladi. Bu borada san'at, xususan, musiqiy tarbiya o'zining betakror korreksion va reabilitatsion imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Xalqaro miqyosda alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqi umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning huquqiy poydevori Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan hujjatlarga borib taqaladi. Xususan, ilk bor Inklyuziv ta'lim yondashuviga "Salamanca deklaratsiyasi" [1] 1994 – yildagi "Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi to'g'risidagi" xalqaro hamjamiyat e'tiborini qaratgan bo'lsa, sir emas-ki, Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan 2006 – yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi

konvensiya" nogironlikka bo'lgan an'anaviy tibbiy yondashuvni zamonaviy ijtimoiy – gumanitar yondashuvga o'zgartirganligini ko'rishimiz mumkin. ushbu konvensiyaning 24 – moddasida alohida ehtiyojli bolalarning kamsitishlarsiz inklyuziv ta'lim olish huquqi, 30 – moddasida esa ularning madaniy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish majburiyati belgilangan. O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyani 2021 – yil 7 – iyunda ratifikatsiya qilishi bilan ta'lim va tarbiya jarayonlarini, jumladan, inklyuziv sharoitda musiqiy tarbiya tizimini har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos holda takomillashtirishni davlat darajasidagi ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. Shuningdek, BMT tomonidan qabul qilingan 2030 – yilgacha bo'lgan "Barqaror rivojlanish kun tartibi"da belgilangan 4 – maqsad, barcha uchun umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlashni ko'zda tutadi. Ushbu global dastur talablaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 – yil 21 – fevraldagi 83 – sonli qarori bilan 2030 – yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish choralari belgilandi va 4-maqsad 5-vazifada "Ta'lim muassasalari sharoitlarini imkoniyati cheklangan bolalarning manfaatlarini hisobga oladigan darajada yaxshilash orqali nogironlar uchun barcha darajadagi ta'lim va kasbiy-texnik tayyorgarlikdan teng foydalanish imkoniyatini, barcha uchun xavfsiz va samarali o'qitish muhitini ta'minlash" [2] ustuvor vazifa etib mustahkamlandi.

Inklyuziv muhitda sifatli ta'lim va tarbiya berish esa nafaqat umumiy fanlarni o'rgatish, balki bolalarning emotsional – hissiy olamini shakllantiruvchi musiqiy tarbiya tizimini zamonaviy pedagogik – psixologik yondashuvlar asosida takomillashtirishni ham taqozo etadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda alohida ehtiyojli bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish va inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Inkluziv ta'lim tizimning qonunchilik asosi: Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50 – moddasida "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" – degan muhim me'yor bilan mustahkamlandi.

Shuningdek, 23.09.2020 yildagi O'RQ – 637 – sonli qonunning 20 – moddasi inkluziv ta'limga ajratilgan. Unda: "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma – xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi" [3] – deyilgan. Bu inklyuziv ta'limga huquqiy asos bo'lib hizmat qiladi.

Davlat siyosati darajasidagi bunday e'tibor natijasida maktabgacha va maktab ta'limi tizimida inklyuziv guruh va sinflar salmog'i keskin oshdi. Biroq, qonuniy asoslar va infratuzilma yaratilgani bilan, ushbu muassasalarda bolalarni tarbiyalash mazmuni, xususan, ularning hissiy va estetik olamini boyituvchi musiqiy darslarni korreksion – pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish mexanizmlari haligacha to'liq shakllanmagan. Amaldagi inklyuziv ta'lim amaliyotida alohida ehtiyojli bolalarni musiqiy tarbiyalash tizimi ko'pincha umumiy metodikalarga tayanadi va har bir bolaning individual – psixologik tashxisini (autizm, Daun sindromi, nutq yoki eshitish nuqsonlari) to'liq qamrab olmaydi. Bu esa musiqiy tarbiyaning pedagogik – psixologik tizimini zamonaviy inklyuziv talablar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Metodologiya Inklyuziv ta'lim sharoitida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni musiqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishi pedagogik eksperiment,

kuzatish va majmuaviy korreksion – pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etildi. Tadqiqotning bosh uslubiy asosi sifatida musiqa, harakat va so‘z uyg‘unligiga tayanuvchi logoritmika, vokaloterapiya (kuylash bilan davolash) hamda Karl Orffning elementar musiqiy tarbiya tizimi olindi. Karl Orff o‘zining elementar musiqiy tarbiya konsepsiyasining mohiyatini tushuntirib: “Elementar musiqa hech qachon shunchaki musiqaning o‘zi emas, u harakat, raqs va so‘z bilan uzviy bog‘liqdir; uni shunchaki tinglash emas, balki unga ijrochi sifatida jalb etilish lozim” [4], — deb ta’kidlagan edi. Nutq apparati buzilgan bolalar bilan ishlashda barmoqlar harakatining ahamiyatini asoslashda olima N.I. Rejametovaning: “O‘zbek xalq cholg‘ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish nafaqat ularning musiqiy qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi, balki kognitiv va eshitish-sensor faolligini ham innovatsion asosda rivojlantiradi” [5] – degan konseptual fikri Karl Orff cholg‘ularidan foydalanish metodikamizning to‘g‘riligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarining inklyuziv sinflarida tahsil olayotgan, nutq rivojlanishida turli darajadagi nuqsonlari ya’ni duduqlanish, umumiy nutq yetishmovchiligi, dizartriya (nutq apparati), bo‘lgan bolalar ishtirokida o‘tkazildi. Eksperiment jarayonida bolalar tarkibi tahlil qilinib, ularning individual – nutqiy hamda eshitish – ritmik xususiyatlari e’tiborga olindi. Mashg‘ulotlar haftasiga 2 marotaba, sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda va haftasiga 1 marotaba individual korreksiya shaklida olib borildi.

Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda musiqiy tarbiya darslari doirasida quyidagi tizimli metodika va texnologiyalar majmuasi tatbiq etildi: Logoritmik mashqlar metodi musiqa, harakat va so‘z integratsiyasi: Nutqiy nuqsoni bor bolalarda eng ko‘p uchraydigan muammo – nutqiy eshitish va ritm hissi o‘rtasidagi nomutanosiblikdir. Ushbu metod doirasida bolalarga musiqa ritmi ostida bo‘g‘inli o‘yinlar, she’riy matnlarni ritmik harakatlar masalan, chapak chalish, qadam tashlash orqali ijro etish o‘rgatildi. Bu duduqlanishning oldini olishga va muloqotda nutq silliqligini ravonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Musiqiy – reaktiv vokaloterapiya va artikulyatsion gimnastika orqali, nutq apparati va artikulyatsiya a’zolarining harakatlanish qobiliyati, uning aniqligi va kuchini rivojlantirish maqsadida darsning dastlabki qismiga musiqiy fon ostidagi artikulyatsion mashqlar kiritildi. Maxsus vocal (kuylash) mashqlari va nafas olish gimnastikalari (cho‘ziq unli tovushlarni kuyga solib aytish) orqali bolalarda nutqiy nafas olish tizimi shakllantirildi. Bu esa so‘zlarni talaffuz qilishda havo yetishmasligi oqibatida yuzaga keladigan nutqiy to‘xtashlarni bartaraf etadi.

Nutq markazlari miya yarim sharlarida mayda barmoqlar harakati motorika markazlari bilan yonma – yon joylashgan. Shundan kelib chiqib, Karl Orffning elementar cholg‘u asboblari bilan ishlash metodikasi yordamida bolalarga shivirlaydigan, taqillaydigan elementar cholg‘ular masalan, marakas, ksilofon, ritmik taxtachalar, uchburchaklar (metalda yasalgan cholg‘u asbobi) chaldirildi. Barmoqlar harakati orqali miyadagi nutqiy hududlar refleksiv ravishda faollashtirildi.

Shu bilan birgalikda nutqiy nuqsoni bor bolalarda yuzaga keladigan psixologik to‘siqlar masalan, gapirishdan qo‘rqish, logofobiya (grekcha *logos* – so‘z, nutq va *phobos* – qo‘rquv) va tortinchoqlikni yo‘qotish uchun qo‘llab – quvvatlovchi matnllik qo‘shiqlar asosida kichik sahnashtirilgan o‘yinlar tashkil etildi. Bola guruhda qahramon sifatida qo‘shiq kuylash orqali o‘z nutqiy kamchiligini biroz unutdi va emotsional erkinlikka erishdi. Ushbu yondashuv tez – tez takrorlansa sezilarli darajada muvaffaqiyatga erishadi.

Taklif etilgan musiqiy – pedagogik tizimning samaradorligi quyidagi diagnostik mezonlar asosida baholandi:

Bolaning nutq tezligini musiqiy tempga moslashtira olishi, duduqlanish ko‘rsatkichlarining kamayishi;

Qo‘shiq kuylashda: orfoepik qoidalar asosida tovushlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qila olishi, artikulyatsion tayyorgarligining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Jamoaviy faollikda, ya’ni teatrlashtirilgan kichik sahna ko‘rinichida asar qahramoni bo‘lib musiqiy muhit ta’sirida bolaning lug‘at boyligi oshishi va tengdoshlari bilan faol muloqotga kirishishini rag‘batlantidi.

Tadqiqot natijalari

Inklyuziv ta’lim sharoitida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun taklif etilgan musiqiy – pedagogik tizimning amaliy samaradorligini baholash maqsadida eksperiment boshida va yakunida qiyosiy diagnostika ishlari olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida olingan Tajriba guruhi 15 nafar va Nazorat guruhi 15 nafar bolalarining nutqiy hamda psixo – emotsional parametrlari belgilangan 3 ta asosiy mezon bo‘yicha o‘rganildi. Olingan aniq raqamli natijalar va ularning foizdagi ifodasi 1-jadvalda keltirilgan.

1–jadval.

Musiqiy – korreksion darslar eksperimentigacha va eksperimentidan keyingi nutqiy ko‘rsatkichlar dinamikasi ko‘rsatilgan jadval.

Baholash mezonlari	Darajalar	Tajriba guruhi (n=15) Eksperimentdan oldin	Tajriba guruhi (n=15) Eksperimentdan keyin	Nazorat guruhi (n=15) Eksperimentdan oldin	Nazorat guruhi (n=15) Eksperimentdan keyin
Nutqning ritmik-temp xususiyatlari (Duduqlanish va sur’at buzilishi)	Yuqori	2 bola (13,3%)	7 bola (46,7%)	2 bola (13,3%)	3 bola (20,0%)
	O‘rta	6 bola (40,0%)	7 bola	7 bola (46,7%)	7 bola (46,7%)
	Past	7 bola (46,7%)	(46,7%) 1 bola (6,6%)	6 bola (40,0%)	5 bola (33,3%)
Artikulyatsion motorika (Tovushlarni aniq talaffuz qilish)	Yuqori	3 bola (20,0%)	8 bola (53,3%)	3 bola (20,0%)	4 bola (26,7%)
	O‘rta	5 bola (33,3%)	6 bola (40,0%)	6 bola (40,0%)	7 bola (46,7%)
	Past	7 bola (46,7%)	1 bola (6,7%)	6 bola (40,0%)	4 bola (26,6%)
Kommunikativ faollik (Logofobiyaning yengilishi)	Yuqori	1 bola (6,6%)	9 bola (60,0%)	1 bola (6,6%)	2 bola (13,3%)
	O‘rta	4 bola (26,7%)	5 bola (33,3%)	5 bola (33,3%)	6 bola (40,0%)
	Past	10 bola (66,7%)	1 bola (6,7%)	9 bola (60,1%)	7 bola (46,7%)

1-jadvalda aks etgan raqamlar an’anaviy dars dasturi asosida shug‘ullangan Nazorat guruhiga nisbatan maxsus takomillashtirilgan musiqiy – korreksion tizim tatbiq etilgan Tajriba guruhida keskin ijobiy siljishlar yuz berganini real ko‘rsatib turibdi:

1. Nutqning ritmik va temp xususiyatlari bo‘yicha: ritm va nutqiy nafas nomutanosibligi mavjud bo‘lgan past darajadagi bolalar soni Tajriba guruhida dastlab 7 nafarni (46,7%) tashkil etgan bo‘lsa, logoritmik mashqlardan so‘ng bu ko‘rsatkich atigi 1 nafargacha (6,6%) kamaydi. Yuqori daraja esa 2 nafardan 7 nafargacha ko‘tarildi. Nazorat guruhida esa past darajadagi bolalar soni atigi 1 nafarga kamaygan (6 boladan 5 bolaga).

2. Artikulyatsion aparatni ishlash holatini yaxshilashda: Musiqiy artikulyatsion gimnastika va Karl Orff cholg‘ulari (barmoqlar mayda motorikasini faollashtirish orqali miya markazlariga chaqnash berish) yordamida Tajriba guruhida tovushlarni aniq va ravon talaffuz qiluvchi bolalar soni 3 nafardan (20,0%) 8 nafargacha (53,3%) ko‘paydi. Nazorat guruhda esa o‘sish dinamikasi sust bo‘lib, yuqori daraja eksperiment yakunida ham atigi 4 nafarni (26,7%) tashkil etdi.

3. Kommunikativ faollik orqali esa, eng sezilarli va real natija bolalarning gapirish qo‘rquvini yengishida kuzatildi. Eksperiment boshida Tajriva guruhida nutqiy muloqotga kirisha olmaydigan past darajadagi bolalar soni 10 nafar (66,7%) bo‘lgan bo‘lsa, guruhli vokaloterapiya va musiqiy sahnalshtirilgan o‘yinlaridan so‘ng ulardan 9 nafari yuqori va o‘rta guruhlarga o‘tdi va past guruhda atigi 1 bola (6,7%) qoldi. Nazorat guruhida esa muloqotdan qochish va tortinchoqlik muammosi dolzarbligicha qolib, past darajadagi bolalar salmog‘i 7 nafarni (46,7%) tashkil etdi.

Tadqiqot muhokamasi

Olingan eksperimental natijalar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim sharoitida nutqida nuqsoni ya’ni dizartriya, alaliya, duduqlanishi bor bolalarni musiqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish ularning ham nutqiy, ham psixo-emotsional rivojlanishiga majmuaviy korreksion ta’sir ko‘rsatadi. Tajriba guruhida qayd etilgan keskin ijobiy dinamika tasodifiy xarakterga ega bo‘lmay, u taklif etilgan musiqiy – pedagogik metodlarning neyropedagogik asoslari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Nutqning ritmik va temp xususiyatlaridagi o‘sish past darajaning 46,7% dan 6,6% gacha kamayishi logoritmik darslarning inson kinetik *(harakat)* tizimini tartibga solish xususiyati bilan izohlanadi. Logoritmika yo‘nalishi tadqiqotchisi G.A.Volkovaning ta’kidlashicha, “...musiqiy ritm nutq apparati mushaklarining tonusini barqarorlashtiradi, duduqlanishga xos bo‘lgan tonik va klonik tomirlanishlarni yumshatadi” [6]. Bizning tadqiqotimizda qo‘llanilgan musiqa ritmi ostida qadam tashlash va bo‘g‘inlarni kuylash mashqlari bolalarda nutqiy harakatlarning avtomatlashuviga va fonatsion nafas refleksining muvozanatlashuviga olib keldi. Artikulyatsion motorikaning yaxshilanishi tajriba guruhida yuqori darajaning 53,3% ga yetishi, Karl Orff metodikasining tatbiq etilishi natijasidir. Neyropsixologik qonuniyatlarga ko‘ra, bosh miya po‘stlog‘ida barmoqlar mayda harakat markazi boshqaruvi nutqiy harakatlarni ta’minlovchi inson bosh miyasining nutqni shakllantirish va gapirish qobiliyatiga javob beradigan eng asosiy harakat markazi bilan bevosita qo‘shni hisoblanadi. Elementar cholg‘ularni muayyan tempda chalish orqali bolalarning barmoq motorikasi faollashtirildi. Bu esa nutq apparati artikulyatsiyasiga refleksiv ta’sir ko‘rsatib, tovushlarni aniq va orfoepik jihatdan to‘g‘ri talaffuz qilish imkonini berdi. Ushbu amaliy natijalar pedagog olima N.I.Rejametovaning musiqa ta’limida an’anaviy metodlar va innovatsion pedagogik strategiyalar uzviyligini ta’minlash borasidagi ilmiy qarashlariga to‘liq hamohangdir. N.I.Rejametova o‘z tadqiqotlarida elementar cholg‘u ijrochiligi orqali bolalarda musiqiy – ijodiy faollikni shakllantirish neyropedagogik ahamiyatga ega ekanligini asoslagan. Biz taklif etgan

korreksion tizimda Karl Orff metodikasi elementlari yordamida nutq apparati innervatsiyasi buzilgan (dizartriyali) bolalarning neyronal faolligini rag‘batlantirishga erishildi.

Tadqiqotning eng muhim ijtimoiy – psixologik natijasi kommunikativ faollikning oshishi va logofobiya (gapirish qo‘rquvi) muammosining yengilishida ko‘rindi (past daraja 66,7% dan 6,7% gacha kamaydi). Nutqida og‘ir nuqsoni bor bolalar odatda o‘z nuqsonlarini anglagan holda jamiyatdan ajralishga intiladi va ularda nutqiy muloqot xavotirligi (logofobiya) yuzaga keladi. Biroq, qo‘shiq kuylash va musiqiy dramatizatsiya jarayonida bolada psixologik kompensatsiya mexanizmi ishga tushadi. Jamoaviy qo‘shiq kuylash (xor) va ertak qahramonlari obraziga kirish orqali bola o‘z shaxsiy nutqiy muammolarini unutadi. Qo‘shiq aytish jarayonida nutq markazlarining miya yarim sharlarida boshqacha taqsimlanishi (qo‘shiq kuylash jarayoni ko‘proq miya o‘ng yarim shari va chuqurdagi po‘stloq osti tuzilmalari bilan bog‘liqligi) sababli, bolalar duduqlanmasdan, ravon kuylashga muvaffaq bo‘lishdi. Bu fenomen bolalarda emotsional erkinlikni uyg‘otib, inklyuziv muhitda tengdoshlari bilan faol va qo‘rqmasdan muloqotga kirishishini (kommunikativ faolligini) ta’minladi.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim sharoitida nutqida turli darajadagi nuqsonlari bo‘lgan bolalarni musiqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotimiz quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Tizimli korreksiya yordamida an’anaviy musiqiy ta’lim metodikalaridan farqli o‘laroq, integratsiyalashgan logoritmika, musiqiy – reaktiv jamoaviy qo‘shiq kuylash va Karl Orff elementar cholg‘u tizimini o‘z ichiga olgan majmuaviy yondashuv bolalarning nafaqat musiqiy qobiliyatlarini, balki ularning kognitiv va nutqiy – sensor faolligini innovatsion asosda rivojlantirishini isbotladi.

Eksperiment jarayonida Karl Orff cholg‘ulari yordamida barmoq mayda motorikasini faollashtirish, bosh miya po‘stlog‘idagi nutq harakat markazlariga refleksiv ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa tajriba guruhidagi bolalarning artikulyatsion muskul harakatini tubdan yaxshilab, tovushlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘rsatkichini 20,0% dan 53,3% gacha oshishiga xizmat qildi.

Logoritmik mashqlar (musiqa ritmi ostida bo‘g‘inli o‘yinlar va harakatlar) natijasida bolalarda nutqiy nafas olish tizimi barqarorlashdi va duduqlanishning oldini olishga erishildi. Buning samarasi o‘laroq, nutqning ritmik-temp xususiyatlari bo‘yicha past darajadagi bolalar ko‘rsatkichi 46,7% dan atigi 6,6% gacha kamaydi.

Jamoaviy vokaloterapiya va musiqiy sahnashtirilgan o‘yinlar orqali bolalarda logofobiya (gapirish qo‘rquvi) va tortinchoqlik muammosi muvaffaqiyatli yengildi. Tajriba guruhida nutqiy muloqotga kirisha olmaydigan past darajadagi bolalar salmog‘i 66,7% dan 6,7% gacha tushishi ushbu yondashuvning yuqori ijtimoiy – psixologik kompensatorlik imkoniyatidan dalolat beradi.

Amaliy tavsiyalar: Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining inklyuziv sinflari va guruhlari uchun mo‘ljallangan musiqa darslari dasturlariga logoritmik va vokaloterapevtik mashqlarni majburiy komponent sifatida kiritish.

Inklyuziv ta’lim pedagoglari va musiqa rahbarlarining neyropedagogik hamda korreksion – pedagogik tayyorgarligini oshirish, ularni Karl Orff elementar musiqiy tarbiya metodikasi bo‘yicha puhta tayyorlanishiga ko‘maklashish.

Xulosa qilib aytganda, takomillashtirilgan musiqiy – pedagogik tizim alohida ehtiyojli bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning hissiy olamini boyitish va tengdoshlari bilan

ISSN 2181-4309

kamsitishlarsiz, teng huquqli muloqotga kirishishini ta’minlashning eng samarali va gumanitar chora – tadbirlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha Salamanka deklaratsiyasi 1994-yilda Ispaniyaning Salamanka shahrida YuNESKO va Ispaniya Ta’lim vazirligi tomonidan o‘tkazilgan Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘yicha Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan. https://www.unesco.org/sdg4education2030/en
2. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.02.2022 yildagi 83-son 1-ilova.
3. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son 20-modda
4. Орф К. Шульверк. Выпуск 1. Базовые тексты 1932–2010. М., 2011. С-23.
5. Rejametova N.I. O‘zbek xalq cholg‘ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish: Ped. fan. fals. dok. (PhD) diss. ... avtoref. – Toshkent: MTMRMQTMOI, 2019-y. 12-b.
6. Volkova G.A. Logopedicheskaya ritmika: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Vlados, 2002. – 58-59-b.

MUNDARIJA

U.B.Ismoilov
MOBIL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL NOTIQLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI 195 201

Parpiev Tursunboy Hojiyevich
SHERALI JO'RAYEV QO'SHIQLARINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK MEZONLARI 202 205

G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI..... 206 210

Umarov Azizbek Vaxobovich
PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA MUAMMOLARI 211 215

Umarov Azizbek Vaxobovich
MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROTLI YONDASHUVNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA IMKONIYATLARI 216 220

Turg'untoshev Muxlisbek Ilhomjon o'g'li
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGI VA SOG'LOM OVQATLANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 221 226

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich
ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLAR – O'QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING ASOSI SIFATIDA 227 231

Q.Q.Toshtemirov
INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH..... 232 238

Xabibullayeva Madinaxon Muxtorjon qizi
TA'LIM MUHITIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH VA PEDAGOGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 239 243

A.A.Zaparov, M.D.Samatova
EKONOMETRIKANI O'QITISHDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI 244 249

Mamasodiqova Xusnida Rahimjon qizi
XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PISA, TIMSS, PIRLS) YONDASHUVLARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH..... 250 252

Abduvaxobova Mubinaxon Azizbek qizi
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EMOTSIONAL KONSEPTLARNING FRAZEOLOGIK VERBALIZATSIYASI: LINGVOKOGNITIV VA LINGVOMADANIY TAHLIL 253 257

